

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.1.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ERMATOV NOSIR TOXIROVICH

**OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – “Menejment”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economic sciences**

Ermatov Nosir Toxirovich

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish mexanizmlarini
takomillashtirish.....3

Эрматов Носир Тохирович

Совершенствование механизмов управления семейным
бизнесом.....31

Ermatov Nosir Tokhirovich

Improvement of family business management mechanisms.....61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications.....65

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.1.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ERMATOV NOSIR TOXIROVICH

**OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – “Menejment”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5239 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasi (tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xasanov Tohir Abdurashidovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.23.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-74.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "_____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

O.D. Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, i.f.d., professor

Sh.A. Allayarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti taraqqiy etgan davlatlarda aholining moddiy farovonligi, turmush darajasi ko'p jihatdan hukumat tomonidan oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish, rivojlantirish hamda uni qo'llab-quvvatlash tizimini samarali tashkil etish va amaliyotga joriy etish darajasiga bog'liqligini ko'rsatmoqda. Oilaviy tadbirkorlikni davlat siyosati darajasida takomillashtirish hamda mahalliy hokimiyat tomonidan oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash uchun ular faoliyatiga tatbiq etiladigan boshqaruv tamoyillari, vositalari va mexanizmlari alohida hududning shart-sharoitlari hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa yuqori samara beradi. Dunyodagi eng yirik va nufuzli xalqaro konsalting (maslahat) kompaniyalaridan biri bo'lgan "McKinsey&Company"ning 2024-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, "tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan oilaviy korxonalar hissasiga jahon YaIMni 70 foizi hamda global ishchi kuchining 60 foizi to'g'ri kelmoqda"¹. Bu jahon miqyosida oilaviy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, samarali boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishning ahamiyati ortib borayotganligini namoyon etadi.

Jahonda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda oilaviy biznesning iqtisodiy o'sish, bandlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini kompleks tarzda o'rganilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlar, asosan, oila va biznes manfaatlarini mutanosiblashtiruvchi korporativ boshqaruv va merosxo'rlik tizimini shakllantirish, oilaviy va xo'jalik moliyasini institutsional jihatdan ajratish hamda soliq-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, innovatsion va diversifikatsiya qilingan biznes-modellarni joriy etish, oila a'zolari (xususan, ayollar va yoshlar) inson kapitali hamda tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, oilaviy tadbirkorlik uchun qulay institutsional va infratuzilmaviy muhitni yaratish kabi ustuvor yo'nalishlarga qaratilgan.

O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha davlat siyosati, avvalo, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid dasturlar orqali aholining keng qatlamlarini kichik biznes va o'zini o'zi band qilish jarayonlariga jalb etish, imtiyozli kreditlar va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirishga qaratilayotgani bilan tavsiflanadi. Xususan, Prezident qarori bilan oilaviy tadbirkorlik loyihalarini kreditlash tartibi takomillashtirilib, tijorat banklari orqali maqsadli resurslar ajratish, hududlarda yo'nalishlar kesimida loyihalarni tanlash va monitoring qilish mexanizmi joriy etildi. Shu bilan birga, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da oilaviy va kichik biznesni barqaror iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida qo'llab-quvvatlash, norasmiy faoliyatni legalizatsiya qilish va mahalliy xomashyoga asoslangan qo'shimcha qiymat zanjirlarini shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Binobarin, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar oilaviy tadbirkorlikni

¹ <https://www.mckinsey.com/featured-insights/week-in-charts/all-in-the-family-business>.

boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy modellarini, kredit-qarz mexanizmlari samaradorligini va mahalla darajasida klasterlashuv imkoniyatlarini chuqur o'rganish orqali qabul qilingan vazifalarning amaliy ijrosini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 9-noyabrdagi PF-244-son "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-son "2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida", 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-yanvardagi 52-son "Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida bog'dorchilik, uzumchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda ushbu sohaga oid boshqa qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot ishida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy, uslubiy va ilmiy asoslari bo'yicha xorijiy olimlardan A.Marshall, J.Keyns, B.Sey, M.Lapusta, A.Smit, Y.Shumpeter, R.Xizrich, K.Makkonnell, M.Piters, F.Xayek, Yu.Starostin, S.Bryu va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan². Mazkur olimlarning izlanishlarida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish, boshqarish, takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini ta'minlash, tadbirkorlikni bandlik bilan bog'liq matematik modellari, ishbilarmonlikka turli omillarning ta'siri, xususiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirishga oid bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Bu borada mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sohasini tadqiq etish bo'yicha S.Aronova, N.Yegorova,

² Маршалл А. Принципы политической экономии. Т. – 1. – М.: Прогресс, Кейнс Ж. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Экономика, 1948. – С. 238-241.; Сэй Ж.Б. Трактаты политической экономии. – М.: Экономика. 1985. – 55 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Т.1.– М.: Ось, 1977. – 480 с.; 1993. – 415 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1985. –159 с.; Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. – М.: Прогресс, 1991. – 223 с.; Хайек Ф. Дорога к рассвету – М.: Экономика, 1992. – 91 с.; Лапуста М.Г, Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. М.: Инфра-М, 1997. – С.87.; Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. В 2-х т. Т-1. – М., 2003. – 399 с.

M.Fedotova, I.Fomichev, V.Lomakin, M.Moiseev, Yu.D.Odegov, A.Rezinkina, V.Savchenko, Ye.Semerikova, V.Shepelov, S.Shishin, E.Smirnov, V.Vlasova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan³.

O‘zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning umumiy muammolari, uni tashkil etish, boshqarish, takomillashtirish masalalari bo‘yicha mahalliy olimlardan Yo.Abdullayev, H.P.Abulqosimov, O.Aripov, I.A.Bakiyeva, M.Eshov, U.Gafurov, U.Sharifxo‘jayev, Q.Muftaydinov, A.Qulmatov, F.Karimov, R.Xodjayev, Sh.Yuldashev, G.Shadiyeva, M.Xalilov, B.Berkinov, Sh.Quvandikov, Q.Raximov, R.Toxirov, N.Ernazarova va A.Samadov singari olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan⁴. Shu bilan birga xalqaro darajada tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik shakllari, xususan oilaviy biznes va uning iqtisodiyotdagi o‘rni, ahamiyati, muhimligi hamda uni rivojlantirishning amaliy va nazariy masalalari ko‘plab xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, shotlandiyalik olim A.Smit o‘zining “Xalqlar boyliklarining mohiyati va sabablarini tadqiq etish” nomli kitobida oilaviy tadbirkorlikning shakllanishida uy xo‘jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatini tadqiq etish muhim uslubiy ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tgan. Uning fikricha, “Oilaviy tadbirkorlik uy xo‘jaligi taraqqiyotining ilk shakllanish va rivojlanish bosqichini ifoda etib, unga bo‘lgan nazariy qarashlarni shakllantirish uchun muhim metodologik funksiyani o‘taydi. Rossiyalik olimlardan N.Barxatovanning fikricha, oilaviy tadbirkorlik bu “Oila boshlig‘i tomonidan tashkil etilgan va unda oila a‘zolari turli lavozimlarda ishlaydigan tadbirkorlikning bitta shaklidir. Boshqa bir rus olimi D.Volkov esa oilaviy tadbirkorlikka “... aniq bir moliyaviy javobgarlikka ega bo‘lmagan hamda tadbirkorlikka ishtiyoqi bo‘lgan oila tomonidan “bir odam boshqaruvi”ni nazarda tutadigan faoliyat turi”, deb ta’rif bergan. O‘zbekistonda ham mustaqillikka erishilgan dastlabki yillardan ko‘plab mahalliy olimlar, jumladan, B.Berkinov, U.Gafurov, G.Shadiyeva, M.Xalilov, Sh.Quvandikov, Q.Raximov, R.Toxirov, N.Ernazarova va boshqalar o‘zlarining tadqiqot yo‘nalishlaridan kelib chiqib, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ayrim jihatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib

³ Власова В.М. Основы предпринимательской деятельности. – М.: Финансы и статистика. 1996 – 106 с.; Раиский А. Экономика предприятия. – М.: Маркетинг. 2000. – 696 с.; Шестаков А. Предпринимательская деятельность. – М.: 2000, - 263 с.; Егорова Н.Е. Моделирование деятельности малого предприятия // Экономика и математические модели. Том 35, №2, 1999. -67-69 с.; Савченко В.М. Феномены предпринимательства. // Рос. экон. журнал. – М.: 2006. №9. - 46 с.; Шепелов В.М. Очерки теории и практики развития предпринимательства. – Т.: Фан, 1998. – 177 с.; Федотова М.А. Доходы предпринимателя. – М.: 1993. – 235 с.

⁴ Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иктисодиёт назарияси. Т.: Мехнат, 1995. 192-б.; Муфтайдинов Қ. Иктисодиётни эркинлаштириш шароитида тadbirkorlikни ривожлантириш муаммолари: Дис. ... икт. фан. д-ри. Т., 2004. 18 б.; Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иктисодий механизмларини такомиллаштириш: Дис. авт. реф... икт. фан. д-ри. Т., 2017. 30 б.; Абулқосимов П., Қулматов А. Тadbirkorlik сермашаққат фаолият // Иктисод ва ҳисобот. 1997. 9-сон. 9 б.; Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тadbirkorlik асослари. Т.: Мехнат, 2010. 349 б.; Абдуллаев Ё., Юлдашев Ш. Малый бизнес и предпринимательство. Т.: Iqtisod-Moliya, 2008. 339 с. А.Н.Самадов, Р.Ходжаев. Кичик бизнес ва тadbirkorlik: Ўқув қўлланма. Т.: Иктисодиёт, 2010. 275 б.; Ходжаев Р., Эгамбердиев А. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. Т.: Iqtisod, 2008. 105 б.; Б. Беркинов. Oilaviy тadbirkorlik салоҳиятини ошириш йўллари. Монография, Тошкент: ТДИУ., 2019. 189 б.; М. Халилов. Ижтимоий муаммоларни ҳал этишда oilaviy тadbirkorlikнинг аҳамияти / Iqtisodiyot va ta’lim– Тошкент: ТДИУ, 2022 йил Махсус сон. – Б. 420-428. Бакиева И.А. Ўзбекистон енгил саноатида кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни ривожлантириш: Дис. икт. фан. номз. Т., 2012.; Эшов М.П. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг ривожланиши омиллар, натижалар ва истиқболлар: Монография. Т.: Маънавият, 2017. – 80 б.

borishgan. Ularning tadqiqotlarida O‘zbekistondagi mavjud oilaviy tadbirkorlik shakllari, faoliyati, muhimligi hamda ijtimoiy ahamiyati to‘g‘risida bir qancha yondashuvlar ilgari surilgan. Xususan oila xo‘jaligi funksiyalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning hammasi ham ma‘lum darajada daromad va xarajatlarni ko‘zda tutadi. Bu jarayon faqat oila xo‘jaligi doirasida cheklanib qolmaydi, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimida sodir bo‘luvchi jarayon sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu ham oila xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotida ma‘lum o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatadi⁵. Shuningdek, Q.Rahimov o‘zining tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyati – iqtisodiyot va aholi faravonligi tayanchi mavzusidagi ilmiy ishida zamonaviy bozor iqtisodiyotiga xos xususiyat sifatida O‘zbekistonda yirik korxonalar soni kamayib, kichik korxonalar soni keskin o‘sib borayotganligi ta’kidlangan⁶.

Ma‘lumki tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari muammolarni aniqlash va zamonaviy iqtisodiy sharoitda mahalliy korxonalar samaradorligini oshirish bo‘yicha faol harakatlar alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan R.Toxirov o‘zining tadqiqotlarida “tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini boshqarish ularning samaradorligini baholash bo‘yicha uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishni talab qiladi”, deb ta’kidlab o‘tgan⁷. Chunki korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash muammosi, birinchi navbatda, tegishli samaradorlik mezonlari va model parametrlarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘ladi.

N.Ernazarova oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish yo‘llariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida davlat tomonidan oilaviy tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Uning fikricha, mamlakat iqtisodiy qudrati hamda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashda mamlakatda biznes uchun qulay shart-sharoit yaratib berish muhim ekanligini ta’kidlaydi⁸.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganilayotgan muammoga nisbatan tizimli yondashuv elementlari qo‘llanilgan bo‘lsada, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish borasida boshqaruv tamoyillarini nazariy-metodologik asoslari tizimli tarzda kompleks tadqiq etilmagan. Ushbu holat tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ilmiy amaliy ahamiyatga egaligini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1 “O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning ilmiy-metodik asoslari va usullarini takomillashtirish” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

⁵ Sh.Quvandikov. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014-yil.

⁶ Q. Raximov. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘llari. Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi, 19(2), 168-171.

⁷ 3 R.Toxirov. Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 5(5), 40–43. <https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.213>

⁸ N.Ernazarova. oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish yo‘llari (Namangan viloyati misolida). I.f.f.d. (PhD) diss. Avtoreferati. Urganch, 2025., 52.

Tadqiqotning maqsadi oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oilaviy tadbirkorlik faoliyati va uning kichik biznesni rivojlantirishda tutgan o‘rnini tadqiq etish;

oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish tamoyillari va uni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslash;

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasini o‘rganish;

oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish shartlari va iqtisodiyotga ta‘sirini baholashni amalga oshirish;

oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlanish darajasi va zamonaviy tendensiyalarini tahlil etish;

O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish holatini baholash;

oilaviy tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirishning iqtisodiy imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash;

oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish;

oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning istiqbollarini ekonometrik modellar asosida prognoz qilib, uni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan, xususan, Toshkent viloyatidagi oilaviy tadbirkorlik subyektlari, ularning faoliyatini samarali boshqarish mexanizmlarining tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, boshqarish, takomillashtirish, tahlil etish, baholash yuzasidan paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, guruhlash, iqtisodiy va matematik modellashtirish, prognozlashtirish, algoritmlar va dasturiy mahsulotlarni qo‘llash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aholining tadbirkorlik salohiyati darajasi va iqtisodiy savodxonlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholash asosida tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha qisqa (1 yilgacha), o‘rta (5 yilgacha) va uzoq (10 yilgacha) davrlarga mo‘ljallangan dasturlarni amaliyotga joriy etish asoslangan;

oilaviy tadbirkorlikni samarali boshqarish imkoniyatlaridan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yo‘nalishida (quritish-qadoqlash-sotish), to‘qimachilik uchun (mato-tikuv-sotish-onlayn savdo), asalarichilik uchun (ari parvarishi-asalchilik-qadoqlash-sotish-onlayn savdo), charm buyumlari uchun (charm-qo‘l mehnati-sumka/kamar-onlayn savdo) ishlab chiqarish zanjirini joriy etish asoslangan;

biznes muhitni yaxshilash orqali oilaviy tadbirkorlik salohiyati darajasini aniqlash uslubiyotini ishlab chiqish asosida tadbirkorlik salohiyatining “past” (0-3 ball), “o‘rta” (4-6 ball) va “yuqori” (7-10 ball) ko‘rsatkichlari aniqlangan;

O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning tadbirkorlik salohiyatiga ta’sirini ko‘p omilli korrelyatsion model asosida biznes muhit rivojlanishining 2035-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, davlat tomonidan tartibga solish va samarali boshqarishdagi amaliy tavsifdagi muammolar aniqlangan;

oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, tartibga solish va samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha xorij tajribasi o‘rganilib, ulardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan;

O‘zbekiston Respublikasi hududlari, xususan, Toshkent viloyatida oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish va samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

raqobat muhitida oilaviy tadbirkorlik subyektlariga menejment tamoyillarini joriy etishni takomillashtirish orqali Toshkent viloyatida oilaviy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish yo‘nalishlari aniqlangan;

tadbirkorlikni rivojlantirishning ko‘p omilli korrelyatsion modeli asosida biznes muhit rivojlanishining uzoq muddatli davrga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi. Tadqiqot tahlillari jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Toshkent viloyati hokimligi hamda O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining rasmiy ma’lumotlari va muayyan me’yoriy hujjatlari, tegishli idora va tashkilotlarning hisobotlaridan foydalanilgan. Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv, usul va uslublarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning Toshkent viloyati amaliyotida joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan respublikada oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, tartibga solish hamda samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy asoslarini boyitish, hududlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qisqa, o‘rta va uzoq davrlarga mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqish oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan respublikaning Toshkent viloyati va boshqa hududlarida oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, tartibga solish, oilaviy tadbirkorlik subyektlariga menejment tamoyillarini joriy etishni takomillashtirish, oilaviy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

aholining tadbirkorlik salohiyati darajasi va iqtisodiy savodxonlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholash asosida Toshkent viloyati misolida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qisqa, o‘rta va uzoq davrlarga mo‘ljallangan

dasturlarni amaliyotga joriy etish borasidagi taklifi Toshkent viloyati shahar va tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 17-dekabrda 05-33-14217-sonli, Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 13-oktyabrda 1/2-4-5811-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2024–2025-yillarda Angren, Chirchiq, Olmaliq shaharlari hamda Quyi Chirchiq, Oqqo‘rg‘on, Ohangaron va Piskent tumanlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda aholi o‘rtasida iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha ko‘nikmalarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on, Bekobod, Bo‘ka, Quyi Chirchiq, Parkent tumanlari hamda Nurafshon, Olmaliq, Angren va Ohangaron shaharlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tumanlar imkoniyatlaridan kelib chiqib qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yo‘nalishida (quritish-qadoqlash-sotish), to‘qimachilik uchun (mato-tikuv-sotish-onlayn savdo), asalarichilik uchun (ari parvarishi-asalchilik-qadoqlash-sotish-onlayn savdo), charm buyumlari uchun (charm-qo‘l mehnati-sumka/kamar-onlayn savdo) ishlab chiqarish zanjirini joriy etish taklifi Toshkent viloyati hokimligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 17-dekabrda 05-33-14217-sonli, Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 13-oktyabrda 1/2-4-5811-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yuqorida nomi keltirilgan tuman va shaharlarda ishlab chiqarish zanjirini joriy etilishi orqali ko‘pgina mahallalarda yangi ish o‘rinlari yaratilishi bilan birga aholida tadbirkorlikka bo‘lgan ishtiyoq sezilarli ravishda o‘sgan;

“biznes muhit”ni yaxshilash orqali oilaviy tadbirkorlik salohiyati darajasini aniqlash uslubiyotini viloyat tumanlar kesimida joriy etish orqali tumanlarining tadbirkorlik salohiyatini past (0-3 ball), o‘rta (4-6 ball) va yuqori (7-10 ball) ko‘rsatkichlarini aniqlash taklifi Toshkent viloyati hokimligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 17-dekabrda 05-33-14217-sonli, Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 13-oktyabrda 1/2-4-5811-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida iqtisodiy rivojlanish darajasi past hamda ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan tumanlar aholisi uchun o‘z biznesini rivojlantirishga ko‘maklashish imkoni yaratilib, keyingi yillarda ortda qolayotgan viloyatdagi Oqqo‘rg‘on, Piskent, Bekobod, Quyi Chirchiq, Bo‘stonliq tumanlarining biznes muhitini yaxshilashga asos bo‘lgan;

Toshkent viloyatida oilaviy tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining hududiy iqtisodiy salohiyat va shart-sharoit omillari ta’sirini ifodalovchi hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning tadbirkorlik salohiyatiga ta’sirini ko‘p omilli korrelyatsion modeli asosida biznes muhitni rivojlanishining 2035-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari Toshkent viloyati hokimligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 17-dekabrda 05-33-14217-sonli, Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 13-oktyabrda 1/2-4-5811-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Toshkent viloyatida oilaviy tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining iqtisodiy salohiyat va shart-sharoit omillari ta’sirida shakllanuvchi

istiqboldagi ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilib, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning tadbirkorlik salohiyatiga ta'sirini ko'p omilli korrelyatsion modeli asosidagi biznes muhitni rivojlanishining 2035-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari nafaqat viloyat uchun, balki tumanlardagi iqtisodiy imkoniyatlarni ishga solish, qisqa, o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy hujjat sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ish, xususan, 4 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, ulardan 3 tasi milliy va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflab berilgan. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini shakllanishi va rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oilaviy tadbirkorlik faoliyati va uning kichik biznesni rivojlantirishda tutgan o'rni, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish tamoyillari va uni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ushbu bob materiallarini tayyorlashda oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish, uni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish borasida xorijiy mamlakatlar tajribalari tadqiq qilinib, tadqiqotda belgilangan vazifalar doirasida nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Tadqiqotchi fikricha, xorijiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi hamda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni va hissasi sezilarli darajada yuqori hisoblanadi. Shu bilan birga aholining farovonligi, turmush darajasi va hayot kechirishning sifati ko'p jihatdan oilaviy tadbirkorlikning rivojlanganligi, uning faoliyatidan olinadigan daromad miqdori hamda davlat tomonidan unga yaratilgan sharoitga ham bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan so'nggi yillarda O'zbekistonda ham oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish, rivojlantirish hamda uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasidagi harakatlar dolzarb masalalar qatoridan o'rin oldi.

Oilaviy tadbirkorlikni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda xorijiy tajribalar hamda ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi o'tgan yigirma yillikda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishi va aholi daromadlarining yuqori darajada ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning hissasi ortib borgan. Shu bois hozirgi vaqtda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning aksariyat qismini oilaviy korxonalar tashkil qiladi. Oilaviy tadbirkorlikni tashkil etishning ijtimoiy va iqtisodiy ustunliklarini asosiy jihati sifatida ishtirokchilarning faoliyat ko'rsatishini yuqori samaradorligi bo'lsa, yana bir muhim jihati uni uzoq vaqt davom etishidir.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, oilaviy tadbirkorlik dunyodagi eng qadimgi biznes shakllaridan biri hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlik xususiy biznes faoliyatining 70 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Masalan, Ispaniyada faoliyat ko'rsatayotgan barcha korxonalarining 75 foiziga yaqinini oilaviy biznes tashkil etadi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining 65 foiziga yaqini oilaviy korxonalar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlar ulushiga to'g'ri keladi. Buyuk Britaniyada esa aholining 50 foizi oilaviy biznes bilan shug'ullanadi. AQShda YaIMning 64 foizi, bandlikni 60 foizi, yangi ish o'rinlarini 80 foiziga yaqini oilaviy korxonalar hissasiga to'g'ri keladi. "Fortune" nashri ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi ilg'or kompaniyalarning 35 foizi oilaviy korxonalar hisoblanadi. Rossiyada ham kichik va o'rta biznesning 74 foiziga yaqini oilaviy korxonalar hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyoti rivojlangan ko'plab mamlakatlarda aynan oilaviy biznesni tashkil etish bilan bog'liq tadqiqotlarni olib boruvchi, uning manfaatlarini himoya qiluvchi va oilaviy korxonalarining barqaror faoliyat ko'rsatishi borasida ko'plab aql markazlari faoliyat yuritadi. Bu markazlar aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishdagi muammolarni tahlil qilish, oilaviy biznesni kengaytirish va unga oid an'analarni rivojlantirish, oilaviy tadbirkorlik sulolasini shakllantirish imkonini berishda bevosita yordam ko'rsatadi. Natijada, oilaviy tadbirkorlik nafaqat jamiyatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni ta'minlaydi, balki kelajakka yo'naltirilgan ijobiy ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda yangi innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etishda asosiy o'rin tutadi.

Xalqaro darajada tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik shakllari, xususan oilaviy biznes va uning iqtisodiyotdagi o'rni, ahamiyati, muhimligi hamda uni rivojlantirishning amaliy va nazariy masalalari ko'plab xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, shotlandiyalik olim A.Smit o'zining "Xalqlar boylig'larining mohiyati va sabablarini tadqiq etish" nomli kitobida oilaviy tadbirkorlikning shakllanishida uy xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatini tadqiq etish muhim uslubiy ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tgan. Uning fikricha, "Oilaviy tadbirkorlik uy xo'jaligi taraqqiyotining ilk shakllanish va rivojlanish bosqichini ifoda etib, unga bo'lgan nazariy qarashlarni shakllantirish uchun muhim metodologik funksiyani o'taydi. Rossiyalik olimlardan N.Barxatovanning fikricha, oilaviy tadbirkorlik bu "Oila boshlig'i tomonidan tashkil etilgan va unda oila a'zolari turli lavozimlarda ishlaydigan tadbirkorlikning bitta shaklidir". Boshqa bir rus olimi D.Volkov esa oilaviy tadbirkorlikka "... aniq bir moliyaviy javobgarlikka ega bo'lmagan hamda tadbirkorlikka ishtiyoqi bo'lgan oila tomonidan "bir odam

boshqaruvi”ni nazarda tutadigan faoliyat turi” - deb ta’rif bergan.

Oilaviy biznes, oilaviy tadbirkorlik yoki oilaviy korxonalar faoliyatiga oid turli yo‘nalishdagi tadqiqotlarni har xil soha vakillari, xususan, sotsiologlar, demograflar, psixologlar, menejerlar, marketologlar hamda iqtisodchilar o‘zlarining predmet nuqtayi nazaridan o‘rganib, turli metod va metodologiyalarni, ilmiy faraz, xulosa va takliflarni ilgari surishmoqda. Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarning o‘rganish jarayoni shuni ko‘rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik sohasida ilmiy tadqiqotlar ko‘proq AQSh, Fransiya, Shvetsiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy kabi davlatlarda olib borilgan. Xususan, AQSh olimlaridan John L. Vard, Ivan Lansberg, Kelin E. Gersick, Joseph Astrachan, fransiyalik Manfred Kes de Vriyes, shvetsiyalik Mattias Nordqvist, italiyalik Alfredo De Massislarning ilmiy tadqiqotlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida turli yondashuvlar, tahlillar ilgari surilgan. Mahalliy olimlardan B.Berkinov⁹, U.Gafurov¹⁰, N.Rasulov¹¹, G.Shadiyeva¹², M.Xalilov¹³, Sh.Kuvandikovlarning¹⁴ tadqiqotlarida oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy hamda boshqaruvga oid muammolari ma’lum darajada o‘rganilgan. Biroq O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda aynan qaysi xorijiy tajriba ma’qul va maqbul ekanligi borasida tadqiqotlar yetarli emas. Shu nuqtayi nazardan dissertant tomonidan ayrim xorijiy mamlakatlar tajribalari misolida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olimlarning qarashlari, yondashuvlarini umumlashtirish asosida O‘zbekistonda ulardan foydalanish yo‘llarini asoslash bo‘yicha ba’zi bir takliflar ilgari surilgan. Bu takliflar, yondashuvlar O‘zbekistonda nafaqat oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha, balki hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish hamda ishbilarmonlik muhitini yanada shakllantirishga ko‘maklashadi.

Ularning tadqiqotlarida O‘zbekistondagi mavjud oilaviy tadbirkorlik shakllari, faoliyati, muhimligi hamda ijtimoiy ahamiyati to‘g‘risida bir qancha yondashuvlar ilgari surilgan. Biroq hozirgi kunda, O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda globallashtirish jarayonlari, pandemiyadan keyingi holatlar, geosiyosiy holat hamda yirik davlatlarning manfaatlar to‘qnashuvi natijasida yuzaga kelayotgan vaziyat mazkur masala bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan mazkur tadqiqot ishida xorijiy tajribalarni o‘rganish va respublikada bu yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni umumlashtirgan holda O‘zbekistonda oilaviy biznesni rivojlantirish borasida mavjud muammolar va ularni hal etish borasidagi ayrim shaxsiy mulohazalar bayon etilgan.

⁹ B.B.Berkinov. Oilaviy tadbirkorlikning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlari.// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018-yil.

¹⁰ U.V.Gafurov. Oilaviy tadbirkorlik va uning tarkib topish tamoyillari / Iqtisodiyot va ta’lim, 2022-yil, Maxsus son. –B. 392-399.

¹¹ N.M.Rasulov. O‘zbekistonda oilaviy biznes muammolari va uni rivojlantirish istiqbollari / “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnal. www.infocom.uz. Toshkent sh., №8, 2024. – B. 724-737.

¹² G.M.Shadiyeva. Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumani rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning rolini “mahallabay” yondashuvi orqali baholash usullari / Iqtisodiyot va ta’lim, 2022-y., 5-son, – B. 370-375.

¹³ M.Sh.Xalilov. Ijtimoiy muammolarni hal etishda oilaviy tadbirkorlikning ahamiyati / Iqtisodiyot va ta’lim, 2022-yil, Maxsus son. – B. 420-428.

¹⁴ Sh.O. Quvandikov. Oilaviy tadbirkorlik: milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni, ahamiyati va rivojlanish omillari / “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014-yil.

Mazkur tadqiqotga oid metodologiyalarni tahlil etish, o'z navbatida, xorijiy mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlikni tashkil qilish va uni yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun foydali jihatlarini amaliyotga kiritishda katta turtki bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan ushbu tadqiqotning metodologik jihati mamlakatda oilaviy biznes bilan bog'liq muammolarni aniqlash, ularni tizimli hal etish hamda oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish borasidagi takliflarni amaliyotga kiritish yo'llarini asoslashdan iborat.

Ilmiy manbalarni o'rganish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy tadbirkorlik yoki oilaviy biznes faoliyati faqat aniq bir maqsadga yo'naltirilgan xususiyatga ega bo'lgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin ekan. Chunki bu oilaga tegishli zarur mehnat va moliyaviy resurslar hajmi va ulardan samarali foydalanishni bilish orqali erishilishi lozim bo'lgan strategik va aniq maqsadlar tizimida o'z aksini topishi zarur. O'zbekistondagi qonunchilikka ko'ra oilaviy biznes amaliyotda quyidagi uchta shaklda faoliyat yuritishi mumkin:

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati.
2. Kasanachilik faoliyati.
3. Oilaviy korxonaga ko'rinishida.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik oilaning bitta a'zosi tomonidan olib boriladi. Unda oilaning boshqa a'zolari yordamchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

Oilaviy tadbirkorlikning kasanachilik shaklida esa oila a'zolarining yakka yoki bir guruhga birlashib amalga oshiriladigan faoliyat turi bo'lib, unda biror-bir ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan bevosita shug'ullanadi.

Xalqaro maydonda oilaviy tadbirkorlikning umumqabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Bunga qaramay, Yevropa mamlakatlarida ma'lumotlar to'plash va tadqiqotlar o'tkazish maqsadida unga quyidagicha umumiy ta'rif berilgan:

qaror qabul qilish huquqining katta qismi korxonaga asos solgan yoki korxonaga ulushining asosiy qismini sotib olgan jismoniy shaxsga, ularning oila a'zolariga tegishli bo'lishi;

qaror qabul qilish huquqining aksariyati bilvosita yoki bevositadir;

oilaga yoki qarindoshlarning kamida bitta vakili firmani boshqarishda rasmiy ravishda ishtirok etadi;

agarda firmaga asos solgan yoki uni sotib olgan jismoniy shaxs yoki uning oila a'zolari firmaning kamida 25 foiz ulushiga egalik qilsa, bunday subyektga oilaviy biznes deb qaraladi.

Shu bois oilaviy tadbirkorlik ko'plab xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur tadqiqotdan kelib chiqib, ayrim xorijiy davlatlarda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi, uning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyatini ilmiy manbalar hamda statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilib, ba'zi bir xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Ilmiy manbalar va tahlilarga ko'ra, Germaniyada oilaviy tadbirkorlik (biznes) iqtisodiyotning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Germaniyada oilaviy tadbirkorlik asosan o'rta va yirik qatlamga mansub bo'lib, uni nemislar "Mittelstand" deb yuritishadi. "Mittelstand" nemischa "o'rta sinf" yoki "o'rta

qatlam” degan ma’noni anglatib, bu atama asosan Germaniya, Avstriya va Shveytsariyada iqtisodiy inqiroz davrida muvaffaqiyat qozongan barqaror, kichik va o’rta biznesga asoslangan oilaviy tadbirkorlarni tavsiflash uchun ishlatilgan. Odatda bu tadbirkorlik subyekti toifasiga yillik o’rtacha aylanmasi 50 million yevrogacha bo’lgan va 500 nafargacha xodimlarga ega kompaniyalar e’tirof etilgan.

Germaniyada kichik va o’rta biznesning katta qismi oilaviy tadbirkorlik toifasiga to’g’ri keladi. Statistik ma’lumotlarga ko’ra Germaniyada faoliyat ko’rsatayotgan xususiy sektordagi tadbirkorlik subyektlarining 90-95 foizini oilaviy biznes subyektlarini tashkil etadi. 2023-yil ma’lumotlarga ko’ra, YaIMning 55 foizi, ish o’rinlarining 60 foizini oilaviy biznes tashkil etgan. Shu bois Germaniya iqtisodiyotida oilaviy tadbirkorlikning o’rni katta hisoblanadi.

Italiyada oilaviy biznes Yevropadagi boshqa davlatlardan o’zining tuzilishi, mazmuni hamda qadriyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, Italiyaning shimoliy viloyatlarda oilaviy tadbirkorlik an’anaviy tarzda rivojlangan bo’lib, ular sanoat va xizmat ko’rsatish sohalarida ko’proq ulushga ega. Tahlillarga ko’ra, Italiyadagi xususiy tadbirkorlik subyektlarining 85 foizga yaqinini oilaviy tadbirkorlik shakllari tashkil etadi. Italiya YaIMning 70 foizga yaqini oilaviy korxonalar hissasiga to’g’ri keladi.

AQShda Family Business Magazine hamda Forbes Family-owned Companies Rankings kabi kompaniyalar doim oilaviy biznes bilan bog’liq faoliyatni turli yo’nalishlarda muntazam tahlil qilib, ayrim xulosa va tavsiyalarni e’lon qilib boradi. AQSh amaliyoti ko’rsatishicha, u yerda oilaviy biznes Germaniyani kidek kichik va o’rta biznesning katta qismini tashkil qiladi. Qo’shma Shtatlarda oilaviy korxonalar startaplardan tortib yirik korporatsiyalar, masalan, Volmartdan tortib Ford kompaniyasigacha bo’lgan oilaviy kompaniyalarni o’z ichiga oladi. Barcha xususiy biznes subyektlarining 87 foizi oilaviy biznes hisoblanadi.

AQSh YaIMning 64 foizi oilaviy biznes korxonalari hissasiga to’g’ri keladi. Tahlillarga ko’ra AQShda oilaviy tadbirkorlik nafaqat kichik va o’rta, balki yirik korporatsiyalar ko’rinishida ham faoliyat yuritadi. Har yili yaratiladigan yangi ish o’rinlarining 62 foizi oilaviy biznes ulushiga to’g’ri keladi. Xorijiy tajribalar hamda ilmiy manbalar tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, so’nggi o’tgan yigirma yillikda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini isloh qilish va aholi daromadlarining yuqori darajasini ta’minlashda oilaviy biznesning hissasi ortib borgan. Shu bois hozirgi vaqtda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning aksariyat qismini oilaviy korxonalar tashkil qiladi. Oilaviy biznesni tashkil etishning ijtimoiy va iqtisodiy ustunliklarining asosiy jihati uning ishtirokchilarini faoliyat ko’rsatishining yuqori samaradorligi bo’lsa, yana bir muhim jihati uni uzoq vaqt davom etishidir (1-jadval).

Umuman olganda oilaviy biznes dunyodagi eng qadimgi tadbirkorlik shakllaridan biri hisoblanadi. Ko’pgina mamlakatlarda oilaviy biznes tadbirkorlik faoliyatining 70 foizidan ortig’ini tashkil etadi. Masalan, Ispaniyada faoliyat ko’rsatayotgan barcha korxonalarining 75 foiziga yaqinini oilaviy biznes tashkil etadi. Mamlakat YaIMning 65 foiziga yaqini oilaviy korxonalar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlar ulushiga to’g’ri keladi.

AQShda ayrim yetakchi oilaviy biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot¹⁵

Kompaniya nomi	Sohasi	Tashkil etilgan yili	Boshqaruv oilasi	Izoh
Walmart	Savdo (Retail)	1962	Uolton (Walton)	Uoltonlar dunyodagi eng boy oilalardan biri hisoblanadi
Ford Motor Company	Avtomobilsozlik	1903	Ford	Genri Ford tomonidan tashkil etilgan
Mars, Inc.	Oziq-ovqat, shirinliklar	1911	Mars	M&M's, Snickers, Pedigree kabi brendlari. Hozircha xususiy va oilaviy qolmoqda
Cargill	Agrobiznes, logistika	1865	Kargill va MakMillan (Cargill, MacMillan)	AQShdagi eng yirik xususiy oilaviy kompaniyalardan biri
Comcast	Media va telekommunikatsiya	1963	Robers	Osnovatel: Ralf Robers. Hozir o'g'li Brayen Robers boshqaradi
Yestéye Lauder	Kosmetika va parfyumeriya	1946	Lauder	Yeste Lauder tomonidan asos solingan. Oila a'zolari hozirgacha rahbariyatda
Bechtel	Injiniring, qurilish	1898	Bextel (Bechtel)	Dunyodagi eng yirik xususiy injiniring kompaniyalaridan biri
Levi Strauss & Co.	Kiyim (jinsi)	1853	Berglar oilasi	Leonidas Shtraus tomonidan asos solingan
SC Johnson	Maishiy kimyoviy mahsulotlar	1886	Jonson (Johnson)	"A Family Company" - brendining o'zi oilaviylikni ta'kidlaydi
New York Times Company	OAV (nashr va internet)	1851	Sulsberger	Gazetaning 4-avlod rahbari - A.G. Sulzberger

¹⁵ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

Family Business Magazine hamda Forbes Family-owned Companies Rankings kompaniyalarining ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilda AQShdagi 500 ta yirik oilaviy biznes subyektlari YaIMning 64 foizi, yaratilgan yangi ish o'rinlarini 62 foizi oilaviy korxonalar hissasiga to'g'ri keladi.

Buyuk Britaniyada esa aholining 50 foizi oilaviy biznes bilan shug'ullanadi. Jahonda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini eng samarali yo'lga qo'ygan mamlakatlardan yana biri bu – Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) hisoblanadi. BAAda ham oilaviy biznes sifatida ro'yxatdan o'tish juda sodda, oddiy va ma'lum ma'noda cheklovlar boshqa davlatlarga nisbatan oz hisoblanadi.

2-jadval

Ayrim xorijiy mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari¹⁶

Belgilari	Yevropa mamlakatlaridagi xususiyatlari	BAAdagi	Germaniyada xususiyatlari
Nomlanishi	Oilaviy biznes	Oilaviy biznes	Oilaviy tadbirkorlik (Oilaviy korxonaga)
Egalik shakli	Egalikning kamida 25 foiz qismi ta'sisчилarga yoki ularning qarindoshlariga tegishli	Egalikning eng katta qismi ta'sisчилarga yoki ularning qarindoshlariga tegishli	Egalikning 100 foiz qismi ta'sisчилarga yoki ularning qarindoshlariga tegishli
Yuridik shakli	Yevropa ittifoqi darajasida belgilab qo'yilgan chegara mavjud emas	“Aksiyadorlik jamiyati”, “sheriklik kompaniyasi” dan tashqari istalgan ko'rinishda ro'yxatdan o'tishi mumkin	Faqat “oilaviy korxonaga” yoki “oilaviy tadbirkor” sifatida ro'yxatdan o'tish mumkin
Holati	Siyosiy va ijtimoiy muhokamalarda kichik va o'rta biznes vakillari tushuniladi, lekin oilaviy bizneslarning yiriklashuvi ham kuzatiladi	Kichik va o'rta, yirik tadbirkorlik subyekti sifatida bo'lishi mumkin	Faqat kichik biznes shaklida faoliyat yuritadi
Ishchilar soni	Chegara mavjud emas	Chegara mavjud emas	Qonun hujjatlariga muvofiq kichik biznes subyektlari xodimlarining belgilangan sonidan oshmasligi kerak
Faoliyat turi	Yuridik jihatdan faoliyat shakli cheklab qo'yilmagan	Yuridik jihatdan faoliyat shakli cheklab qo'yilmagan	Oilaviy korxonaga aksiz solig'i to'lanadigan mahsulotni ishlab chiqarishni va yer qaridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshirishi mumkin emas


Ko'plab xorij mamlakatlarida biznes subyekt oilaviy biznes sifatida ko'rilishi uchun biznesning ma'lum bir qismiga bir oila egalik qilishi yetarli bo'ladi.

O'zbekistonda esa tadbirkorlik subyekti oilaviy tadbirkorlik sifatida ko'rilishi uchun subyektning 100 foiz ulushi bir oilaga tegishli bo'lishi lozim. Osiyo

¹⁶ Yevropa ittifoqi mamlakatlari oilaviy bizneslar federatsiyalari asotsiatsiyasi, BAA “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi 2022-yildagi 37-sonli Federal qarori.

taraqqiyot banki instituti 2024-yil aprel oyida e’lon qilingan tadqiqotida Markaziy Osiyo Mintaqaviy Iqtisodiy Hamkorligining (CAREC) o’nta mamlakati va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasining (ASEAN) yettita mamlakatida oilaviy tadbirkorlikka moliyaviy savodxonlik darajasining ta’sirini o’rgangan. Boshqa tadbirkorlik shakllari bilan bir qatorda oilaviy tadbirkorlikning muvaffaqiyatiga ham turli omillar o’z ta’sirini o’tkazishi mumkin. Ta’kidlash joiz, tadbirkorlik faoliyatini va tijoriy operatsiyalarni amalga oshirishda tadbirkordan sohaga doir bilim va ko’nikmalar talab etiladi, bu esa o’z navbatida, kelgusida tadbirkorlik faoliyatining davom etishi va kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

So’rovnoma ASEAN mamlakatlarida 2022-yilning yanvar-mart oylarida, CAREC mamlakatlarida 2022-yilning sentyabr-oktyabr oylarida o’tkazilgan. Tadbirkorlar orasidagi moliyaviy savodxonlikni baholashda moliyaviy bilim, moliyaviy xulq-atvor (moliyaviy xatti-harakat) va moliyaviy munosabat kabi 3 ta ko’rsatkichdan foydalanilgan, umumiy maksimal ball 17 ballni tashkil qilgan. O’zbekistonda oilaviy tadbirkorlik bilan shug’ullanayotganlarning o’rtacha moliyaviy savodxonlik darajasi 8 ballni tashkil qilgan (1-rasm).



1-rasm. Mamlakatlar bo’yicha oilaviy biznes egalarining moliyaviy savodxonlik darajasi¹⁷

Osiyo taraqqiyot banki instituti o’tkazgan so’rovda birinchi oilaviy tadbirkorlik subyektlari egalarining moliyaviy savodxonlik darajasi o’rganilgan. Telefon suhbatida shaklida o’tgan so’rovnoma jami 17 ta mamlakatda, har bir mamlakatdan kamida 1000 ta uy xo’jaliklari ishtirok etgan. Shulardan oilaviy tadbirkorlik bilan shug’ullanuvchi 3007 ta uy xo’jaliklar ma’lumotlari asosida tadqiqot tayyorlangan.

¹⁷ <https://www.oecd.org/en/topics/financial-education.html>.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi oilaviy tadbirkorlik egalarining moliyaviy savodxonlik darajasi Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondagi va ba'zi ASEAN mamlakatlardagi tadbirkorlarning ko'rsatkichidan pastroq, Turkmaniston, Ozarbayjon, Afg'oniston, Gruziya, Filippin, Pokiston mamlakatlari ko'rsatkichlaridan yuqori ko'rsatkichga ega. Demak, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, O'zbekistonda aholini barcha qatlamlarida moliyaviy savodxonlikni oshirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Jamiyat qanchalik moliyaviy, iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan savodxon bo'lsa ishlab chiqarish jarayoni samaradorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari ichida keng tarqalgan tadbirkorlik shakllaridan biri bu – oilaviy tadbirkorlik hisoblanadi. Xorijiy tajribalar hamda xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra oilaviy tadbirkorlik faoliyati tashkiliy va ma'muriy nuqtayi nazardan qator afzalliklarga ega bo'lib, tadbirkorlik subyektlariga ishlab chiqarish ta'minoti hamda uni yo'lga qo'yish bilan bog'liq imtiyozlar taqdim etishi bilan boshqa faoliyat turlaridan ajralib turadi. Oilaviy korxonalar ham rasmiy ro'yxatdan o'tgan holda oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari tomonidan faoliyat yuritadi va a'zolarining mehnatiga asoslanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi 6-7 yilda aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, xususan, hunarmandchilik, kasanachilik va oilaviy tadbirkorlik sohalarida bandlikni ta'minlash orqali ularning qo'shimcha va barqaror daromad manbalari shakllanishiga shart-sharoitlar yaratish borasida davlat tomonidan sohani rivojlantirish bo'yicha bir qancha dasturlari qabul qilindi. Bu dasturlarda quyidagilar belgilab qo'yildi:

oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanadiganlar uchun Markaziy bank asosiy stavkasiga nisbatan +4 bo'lgan, yillik 18 foizga teng kreditlar berish;

kredit miqdorini jismoniy shaxslar uchun 33 million so'mgacha hamda yuridik shaxslar uchun esa 300 million so'mgacha etib belgilanishi ko'rsatib qo'yildi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning turli xil yondashuvlari va uslubiyotlari mavjud bo'lib, ular mamlakat iqtisodiyotining u yoki bu sohasini yanada faollashuviga imkoniyat beradi.

Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, hududlarning imkoniyatlarini to'g'ri baholash, ikkinchidan, biznes qilish uchun qulay muhitni yaratish hamda uchinchidan, joylarda infratuzilma holatini yaxshilash zarur hisoblanadi. Buning uchun, tadqiqotchi fikricha, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

hududlarda foydalanilmay turgan davlatga qarashli hamda ayrim fuqarolarga tegishli noturar joylarni aniqlash va ulardan unumli foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlash;

tadbirkorlik subyektlari nisbatan kam bo'lgan viloyatlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va tizimlashtirish zarur;

har bir mahallada bittadan kasanachilikni rivojlantirishga salohiyati bo'lgan tadbirkorlarni aniqlash va unga kamida 20 ta fuqaroni biriktirgan holda kasanachilik faoliyatini rivojlantirish;

qishloq joylarida ekin maydonlaridan unumli foydalanish, mavsumiy ish o'rinlarini yaratgan tadbirkorlarni rag'batlantirish mexanizmini joriy qilish.

O'zbekistonda 2025-yil 1-oktyabr holatiga 36 096 ta oilaviy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, 3296 tasi yoki 9 foizi Toshkent viloyati ulushiga, 3084 tasi yoki 8,5 foizi Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Xususan, mamlakatdagi jami oilaviy korxonalar sonining 17,7 foizi shu 2 ta hududga to'g'ri keladi. Respublikadagi 3 ta viloyatda oilaviy korxonalar soni respublikadagiga nisbatan 3 foizga ham yetmagan. Xususan, Namangan viloyatida 889 ta (2,5 foiz), Andijon viloyatida 1058 ta (2,9 foiz) hamda Sirdaryo viloyatida 256 ta (0,7 foiz). Shu nuqtayi nazardan Toshkent viloyati misolida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqilganligi va uni boshqa hududlarda joriy etilishi bevosita mamlakatda oilaviy tadbirkorlik institutini yanada rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.


Aholining tadbirkorlik salohiyati darajasi va iqtisodiy savodxonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholash asosida Toshkent viloyati misolida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qisqa (1 yilgacha), o'rta (5 yilgacha) va uzoq (10 yilgacha) davrlarga mo'ljallangan dasturlarni amaliyotga joriy etish asoslangan.

Tadqiqotchi fikricha, mamlakatda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, mazkur faoliyatni tizimli boshqarish maqsadida turli imtiyoz va yengilliklarni taqdim etishda yuqorida bayon etilgan ilmiy-nazariy qoidalarning e'tiborga olinishi mazkur soha faoliyat samaradorligini yanada oshiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni tashkil etishning shart-sharoitlari, holati va rivojlanish tendensiyalari”** tadqiq qilinishi belgilab olingan bo'lib, asosiy e'tibor O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish shartlari va iqtisodiyotga ta'sirini baholash, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlanish darajasi va zamonaviy tendensiyalari hamda Toshkent viloyati misolida oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish holati tahlil qilingan.


Oilaviy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining asosiy omillaridan biridir. Oilaviy tadbirkorlik dastlab hayot ehtiyojlarini qondirish uchun oila uchun daromad olishni xohlaydigan shaxslar yoki oilalar tomonidan quriladi. O'z rivojlanishida, faqat o'z oilasi uchun daromad olish maqsadida qurilgan kompaniya yirik kompaniyaga aylanib, katta aktiv va daromadga ega bo'lishi mumkin. Oilaviy tadbirkorlik – bu kompaniyaning mulki va faoliyatida oila a'zolari bevosita ko'rinadigan kompaniya. Oila a'zolari kompaniyani rivojlantirish uchun kompaniyaning kundalik faoliyatida birgalikda ishtirok etadilar. Bunda oilaviy tadbirkorlikdagi kuchlilik korxonalar faoliyatining ham egasi, ham ijrochisi bo'lgan unga jalb qilingan resurslarning ustunligidir.

Oilaviy tadbirkorlik uning asoschisi va egasi tomonidan e'lon qilingan qadriyatlarga asoslanadi. Bu qadriyatlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ustunlik qiladi va unga aloqador bo'lgan barcha oila a'zolari hamda xodimlar uchun asosiy tamoyilga aylanadi. O'z tarixida rivojlangan va rivojlanayotgan oilaviy tadbirkorlik subyektlari ta'sischilarning ruxsati bilan ishonib topshirilgan shaxslar qo'liga oladi. Bir nechta oila a'zolari kompaniyani boshqarishda yoki kompaniya faoliyatining yakuniy qarorlarini qabul qilishda ishtirok etadilar (2-rasm).



2-rasm. Oilaviy tadbirkorlikda ishtirok etuvchi uchta tizimning bog'liqligi¹⁸

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy tadqiqotlar bilan birgalikda kompaniyaning kelajakdagi rivojlanishi haqidagi fikrlar oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha tadqiqot natijalariga asoslangan tavsifiy tahlillar natijasida oilaviy tadbirkorlikda strategik boshqaruvni amalga oshirish bo'yicha mualliflik qarashlar shakllantirildi (3-rasm).



3-rasm. Oilaviy tadbirkorlikda strategik boshqaruvni amalga oshirish¹⁹

Strategik menejment bir butunlikda amalga oshiriladi va tashkilot maqsadlariga erishishda samarali ishlashi uchun o'zaro funksional hamkorlikni talab qiladi.

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

Strategik menejment tashkilotning keng qamrovli yoʻnalishini taʼminlaydi va tashkilotning hatti-harakati bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, barqaror, hozirgi va kelajakdagi sharoitlarga muvofiq zarur boʻlgan oʻzgarishlarga moslasha oladigan tashkilotlarda qarorlar qabul qilishda asos va yoʻl-yoʻriq beradi.

Boshqaruv strategiyasini amalga oshirish kompaniyaning qadriyatlari, kompaniyaning qarashlari, missiyasi va kompaniya erishmoqchi boʻlgan maqsadlardan boshlanadi, keyin u haqiqiy siyosat va faoliyatda amalga oshiriladi.

Strategik rejalashtirish oilaviy korxonada faoliyatining aniq va masʼuliyatli yoʻnalishiga ega boʻlishi uchun amalga oshirilishi kerak. Strategik rejalashtirish kompaniyaning rentabelligini taʼminlaydigan oʻsishini amalga oshirish uchun ichki va tashqi tomondan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning bir qismidir. Bunda amalga oshirish mumkin boʻlgan baʼzi jihatlari quyidagilardir:

1. Kompaniya qadriyatlarini shakllantirish – kompaniya qadriyatlari kompaniyaning umumiy faoliyati uchun asosdir. Kompaniya faoliyatida ishtirok etayotgan har bir kishi ushbu qadriyatlarga ishonishi va ularni toʻgʻri amalga oshirishi kerak. Yaxshi qadriyatlar oilaviy kompaniyani muvaffaqiyatli kompaniyaga olib kelishi va katta foyda keltirishi mumkin. Shuning uchun qadriyatlarni tayyorlash oilaviy kompaniyalar tomonidan amalga oshirilishi kerak boʻlgan birinchi qadamdir. Kompaniyaning qadriyatlari, shuningdek, ularni amalga oshirish va ularga erishish tartib-qoidalari bilan jihozlangan boʻlishi kerak, shunda ular nafaqat shior, balki kompaniya faoliyatining asosiga ham aylanadi.

2. Oilaviy tadbirkorlikning qarashlari va missiyasini shakllantirish – belgilangan qadriyatlar kompaniya erishmoqchi boʻlgan qarash va missiyaga kiritilishi mumkin. Qarashlar va missiya kompaniya faoliyatining yoʻnalishini aniqlash uchun juda muhim boʻlib, kompaniya uchun foyda olish mumkin, bu esa kompaniyaga jalb qilingan har bir kishining farovonligini yanada oshiradi.

3. Strategik maqsadlar va maqsadlarni ishlab chiqish – oilaviy tadbirkorlikning strategik maqsadlari va kompaniya faoliyati orqali erishiladigan vazifalari boʻlishi kerak. Asosan, kompaniyalar strategik maqsad va vazifalarni maʼlum bir davr mobaynida bosqichma-bosqich belgilashlari mumkin. Ushbu strategik maqsad va vazifalar kompaniya biznesini rivojlantirish va oʻsish uchun asos boʻlishi mumkin. Masalan, inson resurslarini rivojlantirish sohasidagi maqsadlar, texnologiya, kompaniyaning operatsion qamrovi, maqsadli bozor segmenti, erishilishi kerak boʻlgan xizmat darajasi va boshqalar.

4. Zarur hollarda oilaviy korxonada biznes maslahatchisini tayinlash – vaqti-vaqti bilan oilaviy kompaniyada barcha muammolarni faqat kompaniya egasi hal qila olmaydi. Shu bois oilaviy tadbirkorlik bilan shugʻullanuvchi shaxs tomonidan ham boshidan oʻylab, ushbu oilaviy tadbirkorlik maslahatchisini aniqlash kerak. Biznes-maslahatchilar biznesni rivojlantirish, inson resurslarini rivojlantirish, biznes kapitali va biznes qonunchiligining oʻziga xos jihatlari, biznes sheriklik jihatlari va soliqqa tortish jihatlari kabilar bilan bogʻliq maʼlumotlarni taqdim etishda juda muhimdir.

Hozirgi kunda Toshkent viloyatida kambagʻallik va ishsizlikni qisqartirish, migratsiyada kam daromad topayotgan fuqarolarni qaytarish va ularning bandligini taʼminlash eng ustuvor yoʻnalishlardan hisoblanadi. Xususan, Chirchiq shahri,

Yuqori Chirchiq, Bo‘stonliq, Qibray, Toshkent va Parkent tumanlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholini tadbirkorlikka keng jalb etish, jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida manzilli chora-tadbirlar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda yuqorida nomlari keltirilgan 6 ta tuman (shahar)da jami 353 ta mahalla mavjud bo‘lib, ularning soni Chirchiq shahrida 44 ta, Yuqori Chirchiq tumanida 50 ta, Bo‘stonliq tumanida 59 ta, Qibray tumanida 68 ta, Parkent tumanida 62 ta, Toshkent tumanida 70 tani tashkil etadi. Ayni hududlarda jami 7 121 ta kambag‘al oila mavjud bo‘lib, ularning 9 foizi (659 ta) – Yuqori Chirchiq tumaniga, eng ko‘p ko‘rsatkich Bo‘stonliq tumaniga 20 foiz (1444 ta) to‘g‘ri keladi. Shu bois taklif etilgan ishlab chiqarish zanjirini yuqoridagi tumanlarga joriy etish orqali ko‘pgina mahallalarda yangi ish o‘rinlari yaratilishi bilan birga aholida tadbirkorlikka bo‘lgan ishtiyoq sezilarli ravishda o‘sdi.

Toshkent viloyati misolida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tumanlar imkoniyatlaridan kelib chiqib qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yo‘nalishida (quritish-qadoqlash-sotish), to‘qimachilik uchun (mato-tikuv-sotish-onlayn savdo), asalarichilik uchun (ari parvarishi-asalchilik-qadoqlash-sotish-onlayn savdo), charm buyumlari uchun (charm-qo‘l mehnati-sumka/kamar-onlayn savdo) ishlab chiqarish zanjirini joriy etishga asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida oilaviy tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirishning iqtisodiy imkoniyatlari tahlil qilingan, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari ilmiy asoslangan hamda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning istiqbollari ko‘rsatib o‘tilgan.

Toshkent viloyatida so‘nggi 8 yilda 10 milliard AQSh dollari miqdorida hududiy, 8 milliard AQSh dollari miqdorida tarmoq investitsiyalari kiritilgan. Natijada, 10 mingga yaqin sanoat, savdo va servis korxonalarini ishga tushdi. Oxirgi 3 yilda yillik aylanma 10 milliard so‘mdan ko‘p bo‘lgan korxonalar soni 1,8 barobar oshib, 1,7 mingga yetdi. Aylanmasi 100 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan korxonalar esa 137 tadan 193 taga ko‘paydi. Viloyatda oldingi yillarda yillik o‘rtacha eksport 1 milliard AQSh dollariga ham yetmagan bo‘lsa, 2025-yilning 8 oyida bu raqam 1 milliard AQSh dollaridan oshdi. Biroq ayrim tumanlar, xususan, Oqqo‘rg‘on, Piskent, Bekobod, Quyi Chirchiq, Bo‘stonliq tumanlarida tadbirkorlikni rivojlantirish borasida yuqori salohiyat bo‘lishiga qaramay, bu imkoniyatdan talab darajasi foydalanilmayotganini ko‘rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, dissertant tomonidan taklif etilgan Toshkent viloyati tumanlarining tadbirkorlik salohiyatini baholash uslubiyotini amaliyotga joriy etish orqali tumanlarning biznes muhitiga baho berildi. Bu albatta keyingi yillarda ortda qolayotgan tumanlarning biznes muhitini yaxshilashga asos bo‘ladi.


Biznes muhitni yaxshilash orqali oilaviy tadbirkorlik salohiyati darajasini aniqlash uslubiyotini ishlab chiqish asosida Toshkent viloyati tumanlarining tadbirkorlik salohiyatini past (0-3 ball), o‘rta (4-6 ball) va yuqori (7-10 ball) ko‘rsatkichlari aniqlangan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish, rivojlantirish hamda uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash borasidagi faol

harakatlar dolzarb masalalar qatoridan o‘rin oldi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida 50 dan ortiq huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, 2012-yil 27-aprelda qabul qilingan “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni shular jumlasidandir. Shu bilan birga 2020-yil 31-yanvarda Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari doirasida bog‘dorchilik, uzumchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 52-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi ““Har bir oila - tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-iyulda “Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2018-yil 9-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ““Har bir oila - tadbirkor” dasturi doirasida kreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori, 2023-yil 31-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–39-son Qarori hamda 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ–7-son Qarorlari shular jumlasidandir.

Oilaviy tadbirkorlik muvaffaqiyatining ko‘rsatkichlari sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi (4-rasm).



4-rasm. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatidagi muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari²⁰

Oilaviy tadbirkorlik O‘zbekistonning iqtisodiy yuksalishiga, ish o‘rinlari yaratishga, xalq farovonligini oshirishga katta hissa qo‘shayotgan sohalaridan biridir. Biznesni rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiq strategik boshqaruvni amalga oshirish va texnologik o‘zgarishlarni kuzatish orqali professional va zamonaviy oilaviy tadbirkorlik boshqaruvi kompaniya faoliyatini yaxshilashi mumkin. Oilaviy korxonalar o‘zaro kelishilgan qadriyatlar asosida o‘z faoliyat ko‘rsatkichlarini yaxshilashda davom etishlari, sifatli kafolatni amalga oshirishlari va iste‘molchilar, hamkorlar hamda barcha manfaatdor tomonlarga mukammal xizmat ko‘rsatishlari kerak. Oilaviy tadbirkorlikning asoschisi va bosh menejeri sifatida egasining roli

²⁰ Muallif ishlanmasi.

tegishli mutaxassislar tomonidan yordam berishi mumkin, bu esa kompaniyaning kelgusida rivojlanishi uchun foydalanishda foyda keltirishi mumkin.

Xorijiy tajribalar hamda ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi o'tgan yigirma yillikda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini isloh qilish va aholi daromadlarining yuqori darajasini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikni ulushi ortib borgan. Shu bois hozirgi vaqtda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning aksariyat qismini oilaviy tadbirkorlar tashkil qiladi. Oilaviy tadbirkorlikni tashkil etishning ijtimoiy va iqtisodiy ustunliklarini asosiy jihati uning ishtirokchilarini faoliyat ko'rsatishining yuqori samaradorligi bo'lsa, yana bir muhim jihati uni uzoq vaqt davom etishidir.

Toshkent viloyatida tadbirkorlik faoliyati uchun Toshkent viloyati YaHM o'sishi, Toshkent viloyatida texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik tomonidan eksport, Toshkent viloyatida asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalarning ta'siri modellashtiriladi va ishonchligi baholanadi (3-jadval).

3-jadval

Toshkent viloyati tadbirkorlik salohiyatiga ta'sir etuvchi muhim omillarning modellari²¹

	Ko'rsatkichlar	1-model	2-model	3-model	4-model
1.	Viloyat YaHMning o'sish darajasi	0,22 (L1, ln) (0002)			
2.	Viloyatning texnologik, infratuzilmaviy, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlari		0,11 (L2, ln) (0000)		
3.	Viloyatida tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport ko'rsatkichlari			0,25 (L1, ln) (0000)	
4.	Viloyatida asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmi				0,15 (L2, ln) (0000)
5.	F - test	10,23 (0003)	12,41 (0000)	15,10 (0000)	12,85 (0000)
6.	Determinatsiya	0,60	0,52	0,63	0,41

Albatta, yuqorida sanab o'tilgan tadbirkorlik shakllarining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini ochilishiga, raqobat muhitini yaxshilanishiga, importni qisqarishiga, aholini turmush darajasini yaxshilanishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, dissertant ko'proq oilaviy tadbirkorlik bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratdi. Chunki tadbirkorlikni bu shakli G'arbiy Yevropa mamlakatlari, keyinchalik Sharqiy Osiyo davlatlari tajribasida jamiyatning ijtimoiy muammolarini ijobiy hal etishda katta rol o'ynagan.

²¹ Tadqiqot ishi doirasida dissertant tomonidan hisoblangan.

Tadqiqotning tahliliy qismida 2012–2024-yillardagi Toshkent viloyatining hududiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, xususan, YaHMning o‘shish darajasi, texnologik, infratuzilmaviy, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport ko‘rsatkichlari hamda viloyatdagi asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmi olingan. Tanlab olingan ko‘rsatkichlarning matematik xususiyatlarini hisobga olgan holda ekonometrik modellashtirish keng qamrovli yordamchi testlar bilan ARDL (Autoregressive distributed lag model) usulida qurishga qaror qilindi. Ekonometrik model quyidagicha tavsiflanadi: ARDL – Avtoregressiv taqsimlangan kechikish modeli odatda bir tenglama doirasidagi vaqt oraliqlari ma’lumotlari bilan dinamik munosabatlarni tahlil qilishda ishlatiladi. U quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$Y_t = \beta_{01} + \sum_1^l \beta_{1i} X_{1,t-i}$$

Bu formula bir o‘zgaruvchili tahlil uchun keltirilgan. O‘zgaruvchilar soni to‘rtta bo‘lgani uchun 2 ta formuladan foydalanilgan.

Tadqiqot davomida ko‘rsatkichlar aralash statsionarlikka egaligi hamda o‘zaro kointegratsion bog‘lanishga ega ekanligi aniqlandi. Bunda agar bir omilli model bo‘lsa bir omilli ARDL, ko‘p omilli model bo‘lsa ko‘p omilli ARDL qo‘llaniladi.

$$Y_t = \beta_0 + \sum_{i=1}^p \delta_i Y_{t-i} + \sum_{i=1}^l \beta_{1i} X_{1,t-i} + \sum_{i=1}^m \beta_{2i} X_{2,t-i} + \sum_{i=1}^l \beta_{3i} X_{3,t-i} + \sum_{i=1}^m \beta_{4i} X_{4,t-i} + \varepsilon_t$$

ARDL modeli statsionar bo‘lmagan o‘zgaruvchilar bilan ishlashda va kointegratsiya tahlillarini o‘tkazishda ayniqsa qimmatlidir. An’anaviy regressiya modellari statsionar bo‘lmagan ma’lumotlar uchun mos emas, chunki ular ishtirok etadigan o‘zgaruvchilar barqaror munosabatlarga ega, deb taxmin qilinadi.

Modelga ko‘ra quyidagi natijalar olingan:

1. Toshkent viloyatida YaHMning o‘shishi tadbirkorlik muhitiga ta’sir etuvchi eng kuchli omil hisonlanadi, YaHM bir birlikka ortishi bir yildan keyin tadbirkorlik muhitini 0,22 birlik qo‘shimcha yaxshilanishiga ta’sir etadi.

2. Toshkent viloyatida texnologik, infratuzilmaviy, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar ham tadbirkorlik faoliyati uchun muhimdir. Mazkur omilning bir birlikka ortishi tadbirkorlik faoliyatining yashovchanlik imkoniyatini 0,11 birlikka ortishiga olib keladi.

3. Toshkent viloyati iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilayotgan eksport ko‘rsatkichi hududning biznes muhitiga ta’sir ko‘rsatadigan muhim ko‘rsatkichlardan biri ekanligi aniqlandi. Demak, viloyatda tadbirkorlik subyektlariga eksport qilish uchun qanchalik ko‘p sharoit yaratilsa, ularni qo‘llab-quvvatlansa, tadbirkorlik faoliyati shunchalik rivojlanishi ilmiy asoslandi.

4. Albatta, tadbirkorlikni subyektlarini investitsiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bois Toshkent viloyatida asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar tadbirkorlik faoliyatini yashovchanligini mustahkamlaydi. Natijada, tadbirkorlik faoliyatini qo‘shimcha investitsiyalash hisobiga 0,15 birlikka ortishini

ta'minlaydi. Barcha modellarning ishonchli ekanligi olib borilgan hisob-kitoblar orqali tasdiqlandi va ahamiyatligi tekshirildi. Ularning o'zgarishi sharti asosida prognoz qiymatlar shakllantirildi.

4-jadval

2025–2035-yillar uchun Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlikning YaHM, eksport va investitsiyalardagi ulushining prognoz qiymatlari, (foizda)²²

	Ko'rsatkichlar	Yillar										
		2025	2026	2027	2028	2029	2030	2031	2032	2033	2034	2035
1.	YaHMda	54,1	54,7	55,1	55,4	55,9	56,1	56,5	56,9	57,5	58,2	58,7
2.	Eksportda	34,7	35,2	37,1	39,9	41,8	45,2	47,7	50,3	54,7	59,1	61,3
3.	Investitsiya-larda	44,5	45,1	47,5	51,2	51,5	52,9	54,1	54,4	54,1	55,1	55,4

Yuqoridagi shartlar, ya'ni tanlab olingan ko'rsatkichlarning doimiy barqarorligi tadbirkorlik faoliyatini mustahkamlaydi, yashovchanligini oshiradi, tadbirkorlik yurituvchilar o'rtasida raqobatni yaxshilaydi.

O'zbekistonda 2017–2021-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasidan olingan xulosalar, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib mamlakatda tadbirkorlikning turli shakllari, xususan, dehqon va fermer xo'jaliklari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma va xususiy korxonalar ko'rinishidagi tadbirkorlik subyektlarini yanada rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Toshkent viloyatining 2025–2035-yillardagi tadbirkorlik faoliyatiga oid prognoz qiymati ishlab chiqildi. Ushbu prognozlar va unga ta'sir etuvchi omillarni yaxshilash, o'z navbatida, Toshkent viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta turtki berishi kutilmoqda.

Tadbirkorlikka kredit berishda bank tomonidan garov to'g'risida hujjatni talab etilishi endigina tadbirkorlikni boshlagan fuqarolar uchun bir qancha murakkabliklarni keltirib chiqarar edi. Davlat tomonidan shularni ham e'tiborga olgan holda birinchidan, o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatib, tegishli sertifikatni olgan shaxslarga zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish uchun zarur asbob-uskunalar sotib olish hamda ikkinchidan, uzoq muddatga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini ijaraga olib, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan dehqon xo'jaliklari va kichik tadbirkorlik subyektlariga garovsiz 50 million so'mgacha kreditlar berish belgilab qo'yildi. Albatta, bu shartlar O'zbekistonda tadbirkorlikni yanada kengayishiga, ularning sonini ortishi hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad hududning investitsiya muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, sanoat, xizmat ko'rsatish, turizm va qurilish sohalaridagi loyihalarga

²² Tadqiqot ishi doirasida dissertant tomonidan hisoblangan.

mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalb etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan birga aholi o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Albatta, tadbirkorlik shakllari ichida oilaviy tadbirkorlik alohida o‘ringa ega. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan Toshkent viloyati misolida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning tadbirkorlik salohiyatiga ta‘sirini ko‘p omilli korrelyatsion modeli asosidagi biznes muhitni rivojlanishining 2035-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari nafaqat viloyat uchun, balki tumanlardagi iqtisodiy imkoniyatlarni ishga solish, qisqa, o‘rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy hujjat sifatida muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, hududlarning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, ikkinchidan, biznes qilish uchun qulay muhitni yaratish hamda uchinchidan, joylarda infratuzilma holatini yaxshilash zarur hisoblanadi. Buning uchun, tadqiqotchi fikricha, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

hududlarda foydalanilmay turgan davlatga qarashli hamda ayrim fuqarolarga tegishli noturar joylarni aniqlash va ulardan unumli foydalanish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

tadbirkorlik subyektlari nisbatan kam bo‘lgan viloyatlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va tizimlashtirish zarur;

har bir mahallada bittadan kasanachilikni rivojlantirishga salohiyati bo‘lgan tadbirkorlarni aniqlash va unga kamida 20 ta fuqaroni biriktirgan holda kasanachilik faoliyatini rivojlantirish;

qishloq joylarida ekin maydonlaridan unumli foydalanish, mavsumiy ish o‘rinlarini yaratgan tadbirkorlarni rag‘batlantirish mexanizmini joriy qilish;

oilaviy korxonalar soniga ko‘ra hududlar kesimida juda katta tafovut mavjud. Jumladan, Namangan va Sirdaryoda har ming nafar aholiga nisbatan to‘g‘ri kelayotgan oilaviy korxonalar soni 0,3 taga, Andijon viloyatida 0,4 taga to‘g‘ri kelgan. Respublika bo‘yicha bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1,3 taga to‘g‘ri kelmoqda. O‘zbekistonda har ming nafar aholiga eng ko‘p to‘g‘ri keladigan viloyatlarga Navoiy 3,3, Xorazm 2,5 hamda Samarqand viloyati 1,9 tani tashkil etadi. Demak, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududlarga ham jiddiy e‘tibor qaratish lozim.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijasida muallif tomonidan quyidagi ilmiy xulosalar ishlab chiqildi:

O‘tkazilgan tahlil natijasida rivojlangan xorij davlatlaridagi oilaviy tadbirkorlik va oilaviy korxonalarining bugungi holati o‘rganildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorijiy tajribasi hamda oilaviy tadbirkorlik tushunchasi va ushbu atamaga oid ilmiy manbaalar o‘rganildi. Bundan tashqari, oilaviy korxonalarining hududlar kesimida faoliyati, oilaviy korxonalar muvaffaqiyatiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan omillar tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xorijiy tajribalarni o'rgangan holda O'zbekistonda ham oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratish mexanizmini soddalashtirish tavsiya etiladi;

2. Oilaviy tadbirkorlik subyektlariga kreditlarni rasmiylashtirishda jarayonni to'liq raqamlashtirish talab etiladi. Shu bilan birga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida yagona elektron platforma faoliyati samaradorligini oshirish talab etiladi;

3. Oilakredit.uz yagona elektron platformasi orqali aholiga o'zini-o'zi band qilish uchun kreditlar belgilangan mezonlar asosida skoring baholash natijalariga ko'ra, jarayonni to'la avtomatlashtirish talab etiladi;

4. Yil sayin ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni oshib borayotganiga qaramasdan, faoliyat yuritayotgan korxonalar soni so'nggi yilda keskin kamayib bormoqda. Yangi tashkil etilayotgan oilaviy korxonalarining "yashovchanlik davri"ni uzaytirish bilan birga ularning faoliyat samaradorligini ham oshirish lozim bo'ladi;

5. Osiyo taraqqiyot banki instituti o'tkazgan tadqiqot natijasida ma'lum bo'ladiki, rivojlanayotgan sobiq ittifoq davlatlarida oilaviy tadbirkorlik egalarining moliyaviy savodxonlik darajasi nisbatan past deb baholangan (maksimum 17 dan 8 ball yoki 47 foiz). Ushbu tadqiqot oilaviy tadbirkorlik egalarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonda ham nafaqat oilaviy tadbirkorlik subyektlari, balki boshqa shakldagi tadbirkorlik subyektlarini ham moliyaviy savodxonligini oshirish zarur hisoblanadi.

6. Oilaviy korxonalar faoliyatining samaradorligi ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq. Shu sababli, korxonalar boshqaruv tizimini takomillashtirish, zamonaviy menejment usullarini joriy etish va oilaviy biznesga moslashtirilgan treninglar tizimini yaratish tavsiya etiladi.

7. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda hukumat siyosati, soliq imtiyozlari va rag'batlantiruvchi dasturlar muhim rol o'ynaydi. Shu bois, O'zbekistonda ham oilaviy korxonalarga soliq yengilliklari va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish zarur.

8. Oilaviy tadbirkorlikning hududlar bo'yicha rivojlanishi teng emasligi aniqlangan. Shu sababli, viloyatlar va shaharlar kesimida maxsus rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, hududiy resurslar va mahalliy aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

9. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va raqamli vositalardan foydalanish oilaviy korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, oilaviy tadbirkorlik subyektlarini zamonaviy IT va onlayn marketing bo'yicha malaka oshirish kurslari bilan ta'minlash muhimdir.

10. Oilaviy tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishi uchun nafaqat moliyaviy va texnologik, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish zarur. Shu nuqtayi nazardan, oilaviy korxonalarga maslahat xizmatlari, huquqiy yordam, tarmoqlararo hamkorlik va tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.1.23.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЭРМАТОВ НОСИР ТОХИРОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ
СЕМЕЙНЫМ БИЗНЕСОМ**

08.00.13 – «Менеджмент»

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент - 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № В2025.1.PhD/Iqt5239.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на сайте Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Курбанбекова Мохичехра Туробжонова
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Аллаяров Шамсиддин Амануллаевич
доктор экономических наук, профессор

Хасанов Тохир Абдурашидович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Защита диссертации состоится «___» _____ 2026 года в _____ на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.1.23.04 по присуждению ученой степени при Ташкентском государственном экономическом университете. (Адрес: 100003 г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирован №___). (Адрес: 100003 г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; e-mail: tdiu@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2026 года.
(протокол заседания №___ от «___» _____ 2026 года).

Г.К. Абдурахманова
Председатель Научного совета по присуждению научных степеней,
д.э.н., профессор

О.Д. Джурабаев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению научных степеней,
д.э.н., профессор

Ш.А. Аллаяров
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению научных степеней,
д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мировая экономика показывает, что материальное благополучие населения развитых стран во многом зависит от уровня эффективной организации и реализации системы регулирования, развития и поддержки семейного предпринимательства со стороны государства. Принципы, инструменты и механизмы управления, внедряемые государством посредством регулирования и поддержки семейного предпринимательства местными органами власти, будут весьма эффективны, если их реализация будет учитывать условия и возможности конкретного региона. По данным McKinsey&Company, одной из крупнейших и наиболее влиятельных международных консалтинговых компаний в мире, «семейные предприятия, занимающиеся предпринимательством, составляют 70 процентов мирового ВВП и 60 процентов мировой рабочей силы» в 2024 году¹. Это свидетельствует о том, что важность развития системы государственного регулирования, эффективного управления и поддержки деятельности семейного бизнеса возрастает повсеместно.

Во всем мире проводятся масштабные научные исследования, направленные на совершенствование механизмов управления семейным предпринимательством. Эти исследования всесторонне изучают роль семейного бизнеса в обеспечении экономического роста, занятости и социальной стабильности. Исследования в этой области в основном сосредоточены на приоритетных направлениях, таких как формирование системы корпоративного управления и наследования, уравнивающие интересы семьи и бизнеса, институциональное разделение семейных и бизнес-финансов, совершенствование налогового и правового регулирования, внедрение инновационных и диверсифицированных бизнес-моделей, развитие человеческого капитала и предпринимательского потенциала членов семьи (особенно женщин и молодежи), а также создание благоприятной институциональной и инфраструктурной среды для семейного предпринимательства.

Государственная политика по совершенствованию механизмов управления семейным предпринимательством в Узбекистане характеризуется, прежде всего, привлечением широких слоев населения к малому бизнесу и самозанятости посредством программ поддержки предпринимательства, расширением системы льготных кредитов и инфраструктурной поддержки. В частности, указом Президента была усовершенствована процедура кредитования проектов семейного предпринимательства, введен механизм распределения целевых ресурсов через коммерческие банки, а также отбор и мониторинг проектов в различных секторах регионов. Одновременно «Новая стратегия развития Узбекистана» ставит в качестве приоритетной задачи поддержку семейного и малого бизнеса как важного двигателя устойчивого

¹ <https://www.mckinsey.com/featured-insights/week-in-charts/all-in-the-family-business>.

экономического роста, легализацию неформальной деятельности и формирование цепочек добавленной стоимости на основе местного сырья. Следовательно, научные исследования в этом направлении имеют неотложное значение для повышения практической реализации поставленных задач посредством углубленного изучения организационно-экономических моделей управления семейным бизнесом, эффективности кредитно-долговых механизмов и возможностей кластеризации на уровне микрорайонов.

